



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail:
namexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

Sana: 19-11-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 75285

Obyekt nomi «Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani "Gulqishloq" MFYda ichimlik suv tizimlarini qurish»

Buyurtmachi - "Suv ta'minoti va oqava suv obyektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi" UK Namangan viloyati hududiy boshqarmasi

Bosh loyihachi - "ARCHPROJECT INDUSTRY" MCHJ

Litsenziya AL-000968 20.06.2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

Moliyalashtirish manbai - Budget

Bosh pudratchi - Tanlov asosida

Qurilish turi Yangi qurilish

Murojaat raqami: № 72886

1. Loyihalash uchun asos

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.10.2022 yildagi PQ-408-sonli qarori.

1.2. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 3.11.2022 yildagi VI-34-133-6-0-K/22-sonli va 11.11.2022 yildagi VI-34-134-6-0-K/22-sonli qarorlari.

1.3. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi va "Namangan suv ta'minoti" MCHJ bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.

1.4. Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 12.11.2022 yildagi 1714-1714224-54552-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.5. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari va muhandislik tarmoqlarini nazorat qiluvchi manfaatdor tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan materiallar.

1.6. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 2022 yildagi shartnoma.

1.7. Nuqson dalolatnomasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. "Ishchi loyiha"ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.

- Tashqi suv tarmog'i. Umumiy ma'lumotlar, suv tarmog'i trassa rejasi, bo'ylama kesim, tugunlar va quduqlar, jixoz va uskunalarga bo'lgan ehtiyoj jadvali.
- 25 m³ suv minora. Arxitektura va qurilish qismi.
- Smeta hujjatlari.
- Tasdiqlangan ob'ektning nuqson dalolatnomasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

Suv tarmog'i To'raqo'rg'on tumani "Gulqishloq" MFYda joylashgan bo'lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to'g'ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo'yicha - 8 ball. Tashqi havo harorati - 14°s. Me'yoriy qor yuklamasi - 0,50 kPa, shamol yuklamasi - 0,38 kPa. Yerni tuzilish reliefi - tekis.

3.2. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. Suv tarmog'i (yangi qurilish).

Loyihalanayotgan suv tarmog'i polietilen quvurlardan iborat bo'lib, umumiy uzunligi - 1817 metr, shu jumladan: Ø110 mm - 1737 metr, Ø50mm - 80 metr. Tarmoqda yig'ma temir-beton quduqlar ko'zda tutilgan. Suv tarmog'ini avtomobil yo'lidan kesib o'tishi uchun po'lat quvurdan g'iloflar ko'zda tutilgan. Loyihalanayotgan suv tarmog'i To'raqo'rg'on tumani "Gulqishloq" MFY aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlaydi.

2. 25 m³ suv minora.

Ob'ektga avvaldan ishlab chiqilgan loyiha bog'langan.

3. Suv inshooti (ta'mirlash).

Tasdiqlangan nuqson dalolatnomasiga asosan mavjud suv olish inshootida quduqqa nasos montaj qilish, mavjud TP almashtirish, boshqaruv qurilmasi o'rnatish va boshqa ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. *Suv ta'minoti* - "Namangan suv ta'minoti" MChJ To'raqo'rg'on tumani bo'limining 05.11.2022 yildagi 32-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib mavjud suv inshooti qabul qilingan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Suv tarmog'i trassa rejasi Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi, Namangan viloyati AYHBB, Namangan viloyat SEO va JSB, "Namangan suv ta'minoti" MChJ va buyurtmachi bilan kelishilgan.
- Namangan viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 18.11.2022 yildagi 01-19/07-1073-sonli xulosasi.
- Buyurtmachining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish bo'yicha 10.11.2022 yildagi 02-sonli yig'ilish bayoni.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

6.1.1. Ishchi loyihaga Davlat ekologik ekspertiza xulosasi - taqdim qilindi.

6.1.2. Topotasvir xujjatlari ishlab chiqaruvchi (bajargan tashkilot) tomonidan – tasdiqlanmagan.

6.1.3. Umumiy tushuntiruv yozuvi – taqdim etildi.

6.1.4. Loyiha topshirig'iga muvofiq mavjud suv inshootni ta'mirlash ishlari bo'yicha nuqson dalolatnomasi – taqdim etildi.

Trassa rejasida

6.1.5. Umumiy suv tarmog'i bosh rejasida – taqdim etildi.

6.1.6. Trassa rejasida QMQ2.04.02-19ning 8.9-bandiga muvofiq yuvilgan suvlarni quvurdan chiqarib tashlash – aks ettirildi.

6.2. Ekspertiza natijalariga ko'ra buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan 474238,190 ming so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati 7174,149 ming so'mga kamaytirilib, **467064,041 ming so'm** qilib belgilandi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari:	281506,707	ming so'm
Asbob-uskunalar:	124635,937	ming so'm
QQS:	60921,397	ming so'm
- Bundan tashqari		
Buyurtmachining boshqa xarajatlari:	32694,483	ming so'm

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani "Gulqishloq" MFYda ichimlik suv tizimlarini qurish" ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Izoh: Yer qazish ishlarini boshlashdan avval, zaruratga ko'ra muhandislik tarmoqlaridan foydalanuvchi manfaatdor tashkilotlar hamda yo'l korxonasi vakillari ishtirokini ta'minlash lozim.

Bosh mutaxassis: Jalilov Shokirjon Zokirjonovich

Ishtirokchi ekspertlar:

ATA XO'JAYEV NOSIRXON NOYIMJONOVICH

09Шахарсозликка хат [Faylni ko'rish](#)